QASHQADARYO VILOYATI KO‘KDALA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 18-noyabr | 263-4-224-Q/25 | Ko‘kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2013-y, 15-son, 197-modda) 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022 y., 09/22/172/0298-son) talablariga asosan Ko‘kdala tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining (O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda) 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ko‘kdala tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2.Tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Temirov), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (K.Normuminov) va tuman obodonlashtirish boshqarmasi (M.Sayfiyev)larga tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3.Tuman hokimining axborot xizmati kotibi (O.Xudoyberdiyev) ushbu qaror yuzasidan tuman hokimligi veb sayti va ijtimoiy tarmoqlarga yoritib borsin.

4.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **X.Djurayev**

Ko‘kdala tumani hokimining
2025-yil 18-noyabrdagi
263-4-224-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1	Tumandagi Ko‘kdala MFY Erkin vohidov ko‘chasi	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
2	Tumandagi Ko‘kdala MFY Umar hayyom ko‘chasi	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”